



AZIM SUYUN SHE‘RIYATIDA FOLKLOR AN‘ANALARI

Shohruh Tursunmurodov Alisher o‘g‘li,
Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207204>

Annotatsiya: Maqolada Azim Suyun o‘z ijodini badiiy oziqlantiruvchi manba sifatida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanganligi, xalq qadriyatlarini muayyan poetik vazifa bajarganligi tadqiq etilgan. Folklorizm elementlari shoir she‘riyatidagi milliylikni, hayotiylikni, xalqonalikni, falsafiylikni asoslovchi badiiy birlik va mezon ekanligiga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: Lirika, folklorizm, maqol, ertak, rivoyat, xalqonalik, milliylik, qadriyatlar.

O‘zbek she‘riyatining yorqin namoyandalaridan biri Azim Suyun XX asrning saksoninchi yillarida adabiyotga kirib keldi. Uning ilk she‘riy mashqlari o‘quvchilik kezaridayoq “Gulxan”, “G‘uncha” jurnallarida, tuman va viloyat gazetalarida chiqqan boshlagan bo‘lsa-da, birinchi to‘plami 1978-yilda – shoirning o‘ttiz yoshida, ayni yigitlik yillarining kuchga to‘lgan davrida, “**Mening osmonim**” nomi bilan dunyo yuzini ko‘rdi. Vatan, tabiat va muhabbat shoiri bo‘lgan Azim Suyun ijodida xalq qadriyatlariga, milliy o‘zlikka, tarixiy voqealikka tayanish yetakchilik qiladi.

Azim Suyunning ijodiy merosi sarhisob qilinsa, shoirning tug‘ilib o‘sgan maskani – Samarqand viloyatidagi Nakurt qishlog‘i atrofidagi Nurato tog‘larning Qoratog‘ tizmasi orasida yashagan xalqning urf-odatlarini, ona yurtining tabiati ta‘rifi, xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq maqol, matal, tez aytish, ertak, rivoyat, afsona, doston, olqish, qarg‘ish va o‘z boshidan kechirgan yoki bobo-yu momolaridan eshitgan biografik ruhdagi kichik hajmli hikoyalarning poetik asos vazifasidagi “yuk”i zalvorli ekanligi ko‘rinadi. Bu o‘z navbatida, shoir ijodining genetik asoslari va akseologik xususiyatlarini belgilashda tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi.

Qoratog‘ etaklaridagi xalqlarning tabiati, hayoti, kundalik turmush tarzi va mehnat faoliyati bilan uzviy bog‘liqlikda shakllangan shoirning tafakkuri va ijodkorligi bevosita shu xalq taqdiriga qayg‘urishga undagan. Bu intim dard shoir bilan birga yuksalib, nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun bashariyatning taqdiriga qayg‘urishni ifodalovchi shoirlik qismatiga aylangan. Shuning uchun ham Azim Suyun kundalik qaydnomalaridan birida: “**Xalq taqdiri bilan qismatini bog‘lamagan ijodkor – suv ustidagi ko‘pik**”, – deya shoir sifatidagi kredosini bayon qiladi. [3:390]

Shoir ijodidagi bu yetakchi xususiyat uning “**Zamonaviy ertak**” asarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Unda shoir boy va uning kambag‘alligidan boshqa “boyligi”

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



bo‘lmagan quli qismati misolida butun dunyo zolimlariga qaratilgan nafratli munosabatini ko‘rish mumkin:

*Ey, siz amerikalik fermerlar,
Ey, Yevropa, osiyolik korchalonlar,
Afrikaning irkit boylari!.. Choping!
Yuguring! Ular “boyligi”ni sotib oling!
Oling!
Siz boyligni sevasiz, axir. [2:115]*

Mazkur asarning muqaddima va xotimasini qoliplovchi bir xil jumlada, nomlanishida va mikro syujetida xalq og‘zaki ijodining ertak janri xususiyatlari mujassamlashgan, ammo mazmunda va shakliy ifodalnashida shoir individual uslubiga xoslik kuzatiladi: *“Bor ekan, aslida yo‘q ekan. To‘q ekan, aslida och ekan”*. [2:120]

Azim Suyun ijodida Ona yurtning takrorlanmas tabiati, undagi har bir jonzot-u giyoh, xalq qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodidan ta’sirlanish obrazli tafakkur tarzini rang-barang jilalarda akslanishini ta’minlab turadi.

Adabiyotshunoslikdan ma’lumki, yozma adabiyotning og‘zaki ijod mahsulidan oziqlanishi, undan ilhomlantiruvchi manba sifatida foydalanishi folklorizm deb ataladi. “Folklorshunoslik ilmida shoir va yozuvchilar tomonidan xalq maqollarining asar matnida keltirilishi folklorizm deb ataladi. Bu holat ijodkorning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabati ijobiy ekanini tasdiqlaydi”. [5:40]

Azim Suyun ijodida nafaqat xalq maqollari, balki boshqa folklor janrlari, xususan, ertak, afsona va rivoyatlardan ham samarali va ijodiy foydalanish o‘rinlar uchraydi. Bunga zamonaviy adabiyotshunoslikda intermatn ko‘rinishi sifatida ham ilmiy baho berilmoqda, ya’ni “muayyan badiiy matn tarkibida o‘zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir”. [6:129]

Folklorizmning oddiy va murakkab ko‘rinishlaridan foydalanish ayrim hollarda ijodkorning individual uslubidagi yetakchi tamoyillardan sanalishi mumkin. Masalan, Abdulla Qahhor hikoyalarida xalq maqollaridan personaj nutqini jozibador qiluvchi lingvokulturalogik vosita sifatida foydalanilsa, Chingiz Aytmatovning nasriy asarlarida qirg‘iz elatining milliyligini akslantiruvchi birorta afsona yoki rivoyatdan foydalanish holati uchraydi. Bu, albatta, ijodkorning shaxsiy ijodiy manerasi bilan uzviy bog‘liqlikda kechuvchi jarayon hisoblanadi.

Shoir asarlari markazida xalq hayoti, kundalik tutumi turadi. Shu bois o‘tgan asrning 80- yillari nihoyasida yurtimizda ro‘y bergan siyosiy jarayonlar Azim Suyun



ijodiy arsenalida xalq og‘zaki ijodiga xos aytimlar ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. “1987-yil. O‘zbekistonning boshi uzra qora bulutlar ko‘lankasi quyushdi, Moskvadan kelgan “desantchi” rahbarlar respublikani batomom o‘z iskanjalariga olgan bir payt. O‘zbek-u O‘zbekistonning buyuk qalqoni Sharof Rashidov nomi bulg‘anib, uning qabri-yu ruhini haqorat qilish poygasi davom etayotgan va “poyga” rahbarlari Bosh murtaddan qandaydir muruvvat kutib turgan vaqtlar... bir she‘r paydo bo‘ldi”. [1:435]

Bu Azim Suyunning “*Buzulgan elni botir tuzatar*” nomli she‘ri bo‘lib, sarlavha pastiga qavs ichida “*xalq aytimi*” deb qo‘yilgan. Mazkur kichik izoh asarning folklorizm xususiyatini namoyon qilish bilan birga “*xalq dardi*” degan ma‘noni ham uqtiradi kitobxonga, negaki har bandi besh misra bo‘lgan sakkiz bandli bu she‘rda “*O‘h, botirim, qaydasan?*” misrasi naqorot tarzida takrorlanib kelib, bosh g‘oyani ifodalshga xizmat qilgan va asarning nafaqat mazmuni, balki musiqiy ritmini ham ta‘minlashga ham xizmat qilgan.

*Tuproq‘imni yov olgan yo‘q,
Yurtimga qiron solgan yo‘q.
“O‘zim-o‘zim”, - deydi o‘zbek,
Elni buzgan xuddi shu o‘q.
O‘h, botirim, qaydasan? [1:436]*

Anglashiladiki, lirik asarning tug‘ilishi uchun shoirni mutaassir etgan muayyan voqelik mavjud. Bu lirikaning oltin qoidasi – “*biror hayotiy voqea-hodisa ta‘sirida inson qalbida tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali voqelikni aks ettirish*” ga nazariy jihatdan to‘la mos kelishi bilan diqqatni tortadi. [4:477]

Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodida buyuk botirini sog‘ingan el uni qo‘msab yig‘i-yo‘qlov tarzida aytimlar kuylagan. Xuddi qadim bobolar Alp Er To‘ngani yo‘qlaganlar kabi. Ushbu she‘r Sharof Rashidov vafotidan so‘ng faqat o‘z tinchligini o‘ylaydigan kimsalarni sergaklikka undash maqsadida aytilgandek ko‘rinadi. Bu xususiyat she‘rning keyingi bandlarda o‘zining quyush ifodasini topganini kuzatish mumkin:

*Biri chiqsa baland toqqa,
Biri tushar qulatmoqqa.
O‘limligin bo‘zi uchun
Yaramas hatto arqoqqa!
O‘h, botirim, qaydasan? [1:436]*



Band mazmunidan anglashiladiki, xalq orasidan botir chiqsa, uni yo‘qotish payidagi g‘alamislar ham paydo bo‘ladi. Bu go‘yo o‘limligiga bo‘z to‘qiyotgan kaltabinning arqoq, ya‘ni “*matoning o‘rishi(uzunligi) bilan ko‘ndalaniga kesishuvchi ip*” kabi o‘ziga o‘zi qasd qilishiga o‘xshaydi, - demoqda shoir bu satrlar orqali. Shoir quyidagi bandda xuddi qaysidir aytimning avjini kuylayotgan baxshi singari tuyg‘ular ifodasining cho‘qqisi – kulminatsion nuqtasini ifoda etgan:

*Erligini unutgan el –
Erkligini unutgan el.
Yovin tanglayin ko‘tarib,
Birligin unutgan el.
O‘h, botirim, qaydasan? [1:436]*

Achchiq hasratli bandda shoir erligini unutgan xalqni erkligini unutgan xalq deya izohlaydi. Xalq afsonalarida er yigit erki bilan ulug‘langan. Yovga talpinib, unga yaltoqlanib, chinakam jipslik, birdamligini unutganlarni ayovsiz qoralaydi ijodkor.

Aytim nihoyasida shoir folklor bayoniga shunchalik yaqinlashadiki, natijada do‘mbira cherib, yonib kuylayotgan baxshi qiyofasi kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi:

*Gap tanobin tortayin,
Dardimni kimga aytayin?!
O‘z elimni qarg‘amasdim,
Tuzalmasa, hey, qaytayin?!
O‘h, botirim, qaydasan? [1:437]*

Lirik xotimada maqsad yanada oydinlashgan. Shoir muallif el rahnamosi ortidan yovga qo‘shilib, o‘zlari ig‘vo qilayotganlar ustidan kulmaydi, bilaks, ularni tuzatish payida. Shuning uchun dard-u nolani ko‘p ham cho‘zmasdan: “*Gap tanobin tortayin*”, - deya mantiqiy xulosa yasaydi. Nihoyalovchi misrada: “*Tuzalmasa, hey, qaytayin*”, - deya xalq oqini singari nola qiladi. Chin rahnamosidan ayrilgan, buzilgan elni botirgina birlishtirishi mumkinligini, qaysidir ma‘noda, iltijo qilmoqda.

She‘ning sakkiz bo‘g‘inli misralar konstruksiyasiga qurilgan yengil ritmli ohangi, shuningdek, “*botir*”, “*yov*”, “*to‘ra*”, “*g‘ajir*”, “*qoya*”, “*jondor*” va “*kiyik*” kabi rang-barang obarzlar tizimi uning poetik genetikasi folklor asarlariga tutash ekanini dalillab turibdi.

Xullas, Azim Suyun she‘riyati xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘langan holda rivojlangan bo‘lib, unda milliylik, tarixiylik va hayotiylik yetakchi tamoyillar sifatida

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



namoyon bo‘ladi. Shoir ijodida folklorizm elementlaridan ijodiy foydalangan, bu esa uning asarlarida milliylikni chuqur aks ettirish imkonini bergan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Azim Suyunning badiiy uslubi va poetik dunyoqarashi xalq an‘analari va qadriyatlariga asoslangan bo‘lib, uning ijodi zamonaviy adabiyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Суюн А. Ўзлик. – Тошкент: Шарқ, 1999. 443 б.
2. Суюн А. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2018. 448 б.
3. Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Akademnashr, 2018. 448 б.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002.558 б.
5. Йўлдошев Қ, Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак. 2016. 415 б.